

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni
qisqartirish vazirining 2022-yil
3 oktabrdagi 20-son buyrug‘iga
1-ilova

**“Eng yaxshi ijtimoiy loyiha” tanlovini
o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “Eng yaxshi ijtimoiy loyiha” tanlovini (keyingi o‘rinlarda – tanlov deb yuritiladi) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.
2. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) tomonidan nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida tashkil etiladi va o‘tkaziladi.
3. Tanlov ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayot tarzini tubdan takomillashtirish masalalarini yoritish va hal etish maqsadida o‘tkaziladi.
4. “Eng yaxshi ijtimoiy loyiha” tanlovi o‘tkazilishi haqidagi axborot tanlov o‘tkazilishidan 30 kun oldin vazirlikning rasmiy vebsaytida, shuningdek, elektron ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi.

2-bob. Tanlovni o‘tkazish bosqichlari va muddatlari

5. Tanlovni o‘tkazish bosqichlariga quyidagilar kiradi:
 - tanlovni o‘tkazish bo‘yicha vazirlikning rasmiy vebsaytida, shuningdek, elektron ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish;
 - tanlov ishtirokchilaridan “Eng yaxshi ijtimoiy loyiha” bo‘yicha takliflarni qabul qilish va umumlashtirish;
 - takliflarni ko‘rib chiqish va eng ko‘p ball to‘plagan g‘olibni aniqlash;
 - tanlov natijalarini vazirlikning rasmiy vebsaytida e’lon qilish va tanlov g‘olibini taqdirlash.
- Bunda:
 - tanlov ishtirokchilaridan takliflarni qabul qilish har yili 5-oktabr kunidan 5-noyabr kuniga qadar;
 - takliflarni ko‘rib chiqish va eng ko‘p ball to‘plagan g‘olibni aniqlash 6-noyabrdan 20-noyabrga qadar;
 - tanlov natijalari noyabr oyining uchinchi dekadasida vazirlikning rasmiy vebsaytida e’lon qilinadi.
6. Tanlov ishtirokchilari soni cheklanmagan.

3-bob. Tanlovn o‘tkazish va uning natijalarini baholash tartibi

7. Loyihalarda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularni mehnat faoliyatiga keng jalb qilish orqali hayot sifati va darajasini oshirish, ular uchun inklyuziv hayot tarzini yaratishga qaratilgan innovatsion g‘oya, yechim va tugallanganlik o‘z aksini topishi lozim.

Loyihalar so‘nggi 2 yillikda amalga oshirilgan hamda natijasi bugungi kunda namoyon bo‘lgan bo‘lishi yuqori baholanadi.

8. Tanlov ishtirokchisi, loyiha to‘g‘risidagi ma’lumotlarni vazirlikning rasmiy vebssaytida joylashgan e'londa belgilangan tartibda o‘z vaqtida jo‘natilishi talab etiladi.

E'londa quyidagilar ko‘rsatiladi:

loyihalar to‘g‘risida taqdim etilishi zarur bo‘lgan ma’lumotlar (*loyiha maqsadi, vazifalari, amalga oshirilgan ishlar va natijalar hamda kelgusidagi istiqbolli ko‘rsatkichlar*) va qo‘shimcha talab etiladigan hujjatlar ro‘yxati;

loyiha ishtirokchilari va ularning tanlovda ishtirok etish bo‘yicha roziligi (agar loyiha ko‘p ishtirokchilar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa);

tanlovga loyihalarni qabul qilish va uni o‘tkazish muddatlari va loyihalar taqdim etiladigan manzil.

Loyihalarni yuborishda ishtirokchilarning familiyasi, ismi va otaismi, elektron pochta manzili, yashash manzili, telefon raqamlari hamda ishtirokchining nogironligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomma ilova qilingan holda yuborilishi lozim.

9. Tanlov ishtirokchilari tomonidan bildirilgan loyihalar 100 ballik tizimda komissiya a’zolari tomonidan har bir loyiha bo‘yicha alohida baholanadi va shaxsiy imzo bilan tasdiqlanadi.

10. Komissiyasi a’zolarining loyihalarni baholash bo‘yicha qo‘ygan ballari jamlanib, eng yuqori ball to‘plagan nomzod tanlov g‘olibi deb topiladi va komissiya bayoni bilan tasdiqlanadi.

Baholash natijalari bo‘yicha bir nechta ishtirokchilar tomonidan to‘plangan ballar teng bo‘lgan taqdirda Komissiya tarkibiga qo‘shimcha a’zolar jalb etilgan holda takliflar baholanadi.

Agar bir nechta ishtirokchi tomonidan bir xil mazmundagi loyiha kelib tushgan taqdirda, birinchi bo‘lib taqdim etilgan loyiha muallifiga tegishli ballar taqdim etiladi.

Tanlovda bir marta g‘olib bo‘lgan loyihalarning keyingi tanlovlarda ishtirok etishiga va g‘olib deb topilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

11. Tanlov natijalarini baholash va g‘olibni aniqlash bayonnomma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomma tanlovn baholashda qatnashgan Komissiya a’zolari tomonidan imzolanadi.

4-bob. “Eng yaxshi ijtimoiy loyiha” tanloviga kelib tushgan loyihalarni ko‘rib chiqish va baholash komissiya faoliyatini tashkil etish

12. Vazirlikka tanlovini o‘tkazish yuzasidan kelib tushgan loyihalarni ko‘rib chiqish, umumlashtirish va ularni baholash maqsadida komissiya raisi, uning o‘rnbosari va kamida 5 nafar a’zodan iborat tarkibda komissiya tuziladi.

13. Komissiya majlisini uning raisi boshqaradi. Komissiya raisi bo‘limgan taqdirda majlisni uning o‘rnbosari boshqaradi.

14. Komissiya qarorlari ochiq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi. Komissiya qarori yig‘ilishda ishtirok etgan a’zolarning ko‘pchiligi ovoz bergen taqdirda qabul qilingan hisoblanadi. Ovozlar teng bo‘lgan taqdirda kengash raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

15. Komissiya raisi:

komissiya faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

komissiya majlislarini chaqiradi va ularga raislik qiladi va majislarni kun tartibini tasdiqlaydi.

16. Komissiya kotibi:

hujjatlarni qabul qiladi, komissiya yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun hujjatlarni tayyorlaydi, rasmiylashtiradi va ularni saqlaydi;

komissiya majlislarini tashkil etadi;

komissiya a’zolariga va taklif etilgan shaxslarga majlisning o‘tkaziladigan sanasi, vaqt va joyi to‘g‘risida xabar beradi.

5-bob. G‘oliblarni taqdirlash va tanlovni moliyalashtirish manbalari

17. Komissiya qarori asosida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining tanlov g‘olibini e’lon qilish va taqdirlash to‘g‘risidagi buyrug‘i har yili 25-noyabrga qadar vazirlikning vebsaytida e’lon qilinadi.

18. Tanlov g‘oliblari har yili 3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni arafasida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri (yoki uning topshirig‘iga muvofiq boshqa mas’ul shaxslar) tomonidan vazirlikning budgetdan tashqari manbalari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi.

19. Bir martalik pul mukofotlari tanlov g‘olibining hisobraqamiga yoki plastik kartasiga 10 ish kuni muddatda o‘tkazib beriladi.

20. Tanlov natijalari va uning g‘olibini to‘g‘risida vazirlikning rasmiy vebsaytida hamda ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali e’lon qilinadi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

21. Tanlov ishtirokchilari tomonidan tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan materiallar bo'yicha izoh yoki sharh berilmaydi va ular egalariga qaytarilmaydi.

22. Har bir ishtirokchi tanlov doirasida taqdim etilgan materiallarining mualliflik huquqi egasi ekanligini kafolatlashi va uchinchi shaxslarning intellektual huquqlarini buzmasligi shart.

23. Tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan materiallar uchinchi tomonlarning intellektual huquqlarini buzgan bo'lsa, ushbu holat yuzasidan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi javobgar hisoblanmaydi.

24. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor deb topilgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

25. Tanlov natijalari bo'yicha nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.